

**BUGUNGI ZAMONAVIY MODADA USLUBLAR
VA ULARNING TAHLILI**

Orakbayeva Musluma Ibrayim qizi

Qarshi davlat universiteti talabasi

e-mail: Orakbaevamuclima@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Moda faqat kiyimda muhim fursatlarini namoyishchisi bo'lmasdan balki, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarning boshqaruvchi sifatida bo'ladi. Moda inson madaniyatining o'ziga xos fenomeni sifatida san'at sohasida va kiyimda estetik ideal va didni o'zgarishi bilan bog'liq estetik hodisa sifatida tahlil etiladi. Moda tadqiqotchilari modani ijtimoiy va psixologik fenomen sifatida tahlil etishgan, uni paydo bo'lishiga va rivojlanish sabablarni va uni ta'sirida ro'y beradigan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy oqibatlarini ko'rib chiqishgan.*

KALIT SO'ZLAR: *Moda, klassik uslub, Shanel uslub, san'at, dizayner, kiyim, mato, stilist, uslublar, zamonaviy moda,*

Zamonaviy modaning juda tez va jadal rivojlanib borayotganini hatto kundalik turmushimizda ham ko'rishimiz mumkin. Moda taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy hodisalar bilan bog'liqligini esa har kun, har soniyada kuzatamiz. Modani darhol o'zgarishlariga ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar, yirik tarixiy o'zgarishlar, san'at, fan va texnikadagi tub o'zgarishlar sabab bo'ladi. Jamoaning e'tiborini o'ziga tortadigan barcha siyosiy hodisalar modada yangi standartlar va namunalarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Xalqaro aloqalarni va ommaviy axborot vositalarni rivojlanishi, xalqaro bozorni shakllanishi ham modani rivojlanishiga asos yaratadi. Dizayn olamida moda – shunday uslubga aylandiki, radio, televide niye, global kompyuter tarmog'i bu jarayonga o'z hissasini qo'shdi. Ular yodamida yer yuzida yangi moda to'g'risida ma'lumot tez vaqtida ma'lum bo'ladigan bo'ldi.

Kiyim ommabop ishlanishi, ommabop madaniyatni shakllanishi modani asosini barpo etdi. Yangi moda standartlari va namunalari barcha ijtimoiy guruhlar uchun yaxshi omil bo'ldi, chunki zamonaviy ishlab chiqarish imkoniyatlari yangi modani tez ishlab chiqarishga va iste'molchilarga taqdim etishga imkon beradi. Ommaviy axborot vositalarini rivojlanishi ham yangi moda paydo bo'lgani to'g'risida ma'lumot olishga imkoniyat beradi.

Aynan biz bo'lajak, Yengil sanoat mutaxassislari uchun moda olamidagi o'zgarishlar yoki yangiliklar juda muhim ahamiyatga ega. Aslida moda nima? Yoki moda, deganda nimani tushunamiz yoki nimani ko'ramiz? Aynan shu savollarga javobni ustozim, Dizayner-texnolog Ma'mura Suvonovani ma'ruzalarini tinglab, yengil sanoat mutaxassislarimiz adabiyotlaridan foydalangan holda javob bermoqchiman.

Moda- meyor, qoida. Moda-hozirgi zamonaviy jamiyatimizda ommabop xulq shakllaridan biri. Moda- bu o'ziga xos usul. Moda insonni atrofidiagi barcha buyum muhitiga ta'sir etadi, ya'ni magazinlar bezagiga, maishiy buyumlarga, ommabop

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

bayramlarga va tomosha maydonlariga va boshqalar. Ammo, ko‘pincha moda insonning tashqi ko‘rinishida aks etadi: liboslarida, soch turmagida, makiyajida, buyumlariga.

Modaning har bir namunasi uni muxlislariga muayyan maqsadga erishishga, intilishiga, zamonaviy ko‘rinib turishiga yoki ommalar orasida ajralib turishiga, atrofdagi insonlarga o‘zi to‘g‘risida ma’lum ma’lumot berishiga imkon beradi. Bu holat ayniqsa xotin-qizlar orasida m’lum va mashhurdir. Ayollar liboslarida modaning o‘rni beqiyosdir.

Bugungi kunning modasi haqida gapiradigan bo‘lsak, ayollar doimo moda olamida yetakchidir. Ular har soat, har soniyada moda bilan birga harakatda. Modada yangilik - bu avvalgi modaga nisbatan yangi g‘oyalardir. Zamonaviylikning qiymati modani muxlisiga o‘zini his qilishga va tez o‘zgarib, zamonga moslashishga imkon beradi. Zamonaviy moda deb, turli xil uslublardan foydalanib, aralashtirib, kiyimlar kiyib yurishgan yoshlarimiz bugungi kunning modasini o‘ylab topishmoqda. Aslida, har bir libos o‘ziga xos uslubiga ega. Masalan, Koko Chanel uslubi – bu erkin ayolning elegant amaliy uslubidir. Tviddan kostyumlar, qora duxobadan kichkina kuylaklar va yaltiroq bashang liboslar, o‘z davrining klassikasi deb xisoblagan. Fransuz dizayneri Gabriel Chanel esa, nafis bichimli ayollarni korsetlardan voz kechishga va shimni go‘zallik ramzi qilishni majbur qilgan. Bu uslubni oddiy, go‘zal va internatsional uslub hisoblagan. Madam Chanel kostyumida o‘z fikrini shunday izohlaydi: “Men modaga qarshiman, chunki u tez o‘tib ketadi, bahor kelgani uchun kiyimlarni tashlanganini ko‘rishga toqatim yo‘q”. Uning bu fikrlari o‘zi uchun juda muhim hisoblagan va o‘zining fasonlariga alohida urg‘u bergen.

Shanelning kostyumi to‘g‘ri yoki nim yopishgan siluetli, bel chizig‘i tabiiy holda va o‘rta kenglikda o‘tqazma yeng, yoqali yoki yoqasiz, qopqoqli qoplanma chuntakli, yirik tugmali. Bezagiga maxsus e’tibor bergen: yengning shlitsasida uch tugmadan kam bo‘lmasligi kerak, zarli yoki kumush, jun, to‘r tasma. Chanel buyumlarni klassik uzunligi – tizzani sal berkigan. Nafis elementlari zanjirli belbog‘lar, breloklar, bantlar, tug‘nog‘ichlar, sumkalarni zanjirlar bilan bezatdi. Chanel o‘zining noodatiy uslubi bilan hammani o‘z liboslariga jalb qila oladi. Shu qatorda o‘zimni ham.

Uslublar haqida gapirar ekanman, bugungi zamonaviy modada menga, eng yoqadigan uslub bu klassik uslubdir. Chunki men ta’lim olayotgan Qarshi Davlat Universitetimizda talaba-yoshlarimizni kiyinish uslublari aynan klassik uslubda va bu hammamizga birdek yoqadi. Klassik uslub oddiy va ishbilarmon uslub bo‘lib, modaga deyarli sig‘inmaydigan, deyarli o‘zgarmaydigan, hamma talaba-yoshlarga, professor-o‘qituvchilarga ham yoqadigan elegant uslub. Klassik uslub – bu ko‘zga tashlanmaydigan juda oddiy siymo, e’tiborni o‘ziga sifati bilan tortadi.

Bir so‘z bilan aytganda modadan qolmaydigan, modasi o‘zgarmaydigan uslubdir. Aynan shu uslubda kiyinishda ranglarga alohida e’tibor beraman, chunki, to‘q rangli klassik uslubdagи liboslarni ya’ni ko‘zga tez tashlanadigan ranglardan qochib, ko‘zni charchatmaydigan va eng muhimi o‘zim uchun qulay bo‘lgan kiyimlarni kiyishga harakat

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

qilaman. Bu esa sifatli ta’lim olish jarayonlarida ijobiy natijalarga erishishimda yordam beradi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar kuchaydi. Xorijdan kelgan mahsulotlar mahalliy mahsulotlarga raqobatdosh bo‘lgani bois, buyumlar dizayniga, kiyimlar uslubiga katta e’tibor beriladigan bo‘ldi. Kiyim iste’mol va ommabop chiqariladigan buyum bo‘lgani bois, kiyim dizayneri asosan sanoatga oid kolleksiyalarni yaratadi. Bunday mutaxassislarni kiyim dizayneri yoki “stilist” deb atashadi. Aynan dizaynerlarimiz, bugungi yoshlarimiz orasidagi zamонавиј modaga ko‘proq e’tibor bergen holda, liboslarimizni konstruktiv yechimini, matosini va siy whole into the body. This is a complex process that requires a deep understanding of the human body and its needs. The goal is to create a garment that is both functional and aesthetically pleasing. This can be achieved through careful planning, attention to detail, and a good understanding of the latest trends in fashion design. The result is a garment that is comfortable, durable, and stylish, making it a valuable addition to anyone’s wardrobe.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Xasanboyeva G.K. Libos dizayni. Ma’ruza matni -T.: TTESI, 2011.
- 2.X.X.Kamilova,N.A.Isaxojayeva, K.R.Fuzailova “Kostyum kreativ grafikasi”2017.
- 3.Xasanboyeva G.K. , Krimova O.I. “Kiyim modelini ishlash va konstruksiyasini tayyorlash” T. “O’qituvchi”, 1990. TTESI.
- 4.Xasanboyeva G.K. “Kompozitsiya asoslari” Ma’ruza matni.

